

Ashurova Nodiraxon Rafiqovna,
"University of economics and pedagogy" NOTM
(Andijon shaxridagi nodavlat oliy ta'lim muassasasi)
"Filologiya" kafedrası dotsenti (Ta'lim tarbiya
nazariyasi va metodikasi ixtisosligi)

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILIDA ESHITISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

UDK: 378.091.3:811.111

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_2_7](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_2_7)

ASHUROVA N.R. NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILIDA ESHITISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Har qanday chet tilni o'rganishning zamirida to'rtta ko'nikmalar integratsiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, o'qish, yozish, gapirish va eshitishning muhimligi bilan bir qatorda eshitish ko'nikmasining yetakchi o'rinda bo'lishi haqida ushbu maqolada so'z boradi. Faqatgina bir ko'nikmaning o'zinigina egallash kutilgan natijani bermasligiga amin bo'ldik. Jahon amaliyotida xorijiy tilni o'zlashtirishda ravon so'zlashni o'zinigina emas balki materialni eshitish, so'ngra tinglab tushunishni ham o'rgatishga katta e'tibor berishdi. Ayni shu maqola orqali tasviriy san'at ta'lim yo'nalishdagi talabalari misolida xorijiy tilda (ingliz) eshitish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish va o'rganilayotgan tilda tinglash bosqichlarini amalga oshirish haqidagi tavsiyalar berilgan. Maqolada o'zbek, rus va g'arb tadqiqotchilarining eshitish ko'nikmasini qanday shakllantirish va uning amalga oshirilish bosqichlari haqidagi tadqiqotlari batafsil yoritilgan. Tinglashning uch darajasi ogohlantirish, rasshifrovka va tushunishni aniq misollar asosida tushuntirib berilgan. Eshitish ko'nikmasi matn tayyorlash va matn mavzusiga oid dastlabki bilim va hayotiy tajribalarni ishga solish bilan bog'liq bo'lib, uni o'rgatayotganda ularning hammasi e'tiborga olinishi kerak. Bu tushunchalarga e'tibor berish darajasi til o'rganuvchilarning maqsadi va til bo'yicha bilim darajasiga bog'liq. Bu ko'nikmani shakllantirish va rivojlantirishda dars jarayonida eshitib tushunishga mo'ljallangan til materialini tinglashdan avval, tinglash mobaynida va tinglashdan so'ng bajariladigan mashqlarni qanday amalga oshirish haqida tavsiyalar ham berilgan. Bularning barchasi ingliz tildagi so'zlar ma'nosini to'g'ri tushunish va tinglash orqali hosil qilingan bilimlarni amalda qo'llashga qo'yilgan birinchi qadamdir.

Tayanch so'z va tushunchalar: eshitish ko'nikmasi, affektiv, kognitiv, ritorik, rasshifrovka, tushunish, eshitishdan oldingi, eshitish mobaynida, eshitishdan keyingi.

**АШУРОВА Н.Р. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
ФОРМИРОВАНИЯ НАВИКА АУДИРОВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В
НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЯХ ОБРАЗОВАНИЯ**

В основе любого изучения иностранного языка лежит использование интеграции четырех навыков. Однако, помимо важности чтения, письма, разговорной речи и аудирования в этой статье говорится о важности навыков аудирования. Мы стали убеждаться, что овладение только одним навыком в одиночку не дает ожидаемого результата. В мировой практике при изучении иностранного языка большое внимание стали уделять обучению не только бегло говорить, но и слушать материал, а затем понимать его на слух. В данной статье отражены представления о том, как развивать навыки аудирования студентов изобразительного искусства на иностранном языке (английском) и как реализовать этапы аудирования на изучаемом языке. В данной статье рассматриваются способы развития у учащихся навыков аудирования на иностранном (английском) языке в сфере изобразительного художественного образования и реализации этапов аудирования на изучаемом языке. В статье подробно изложены исследования узбекских, российских и западных исследователей о способах развития умения аудирования и этапах его реализации. Три уровня слушания, оповещения, декодирования и понимания объясняются на реальных примерах. Навыки аудирования связаны с подготовкой текста и использованием предшествующих знаний и жизненного опыта, связанных с темой текста, и все это следует учитывать при обучении. Уровень внимания к этим понятиям зависит от цели изучающих язык и уровня владения языком. При формировании и развитии этого навыка даются рекомендации по выполнению упражнений перед прослушиванием языкового материала, предназначенного для аудирования во время урока, во время аудирования и после прослушивания. Все это – первый шаг к практическому применению знаний, полученных путем прослушивания и понимания значения слов на английском языке.

Ключевые слова и понятия: навыки аудирования, аффективный, когнитивный, риторический, декодирование, понимание, предварительное аудирование, во время аудирования, после аудирования.

**ASHUROVA N.R. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE FORMATION
OF ENGLISH LISTENING SKILLS IN NON-PHILOLOGY EDUCATION FIELDS**

On the base of any foreign language learning is the use of four skills integration. However, in addition to the importance of reading, writing, speaking and listening, this article talks about the importance of listening skills. We began to be sure that mastering only one skill alone does not give the expected result. In the world practice, in learning a foreign language, they began to pay great attention to teaching not only to speak fluently, but also to listen to the material, and then to understand it by listening. Through this article, the ideas about how to develop the listening skills of students of visual arts in a foreign language (English) and how to implement the stages of listening in the studied language are reflected. This article discusses how to develop students' listening skills in a foreign language (English) in the field of fine arts education and the implementation of the stages of listening in the studied language. The article details the studies of Uzbek, Russian and Western researchers on how to develop listening skills and the stages of its implementation. The three levels of listening, alerting, decoding, and comprehension, are explained with clear examples. Listening skills are related to text preparation and the use of prior knowledge and life experiences related to the text topic, all of which should be taken into account when teaching it. The level of attention to these concepts depends on the goal of language learners and the level of knowledge of the language. In the formation and development of this skill, recommendations are given on how to perform exercises before listening to language material intended for listening comprehension during the lesson, during listening and after listening. All this is the first step towards the practical application of the knowledge gained by listening and understanding the meaning of words in a English.

Key words and concepts: Key words: listening skills, affective, cognitive, rhetorical, decoding, comprehension, pre-listening, during listening, post-listening

Kirish. Har qanday tilni o'rganishda muhim bo'lgan to'rtta ko'nikma orasida eshitib tushunish ham asosiy o'rin tutadi. Odatda til o'rgatish va o'rganish sohasida tilda gapirish va yozishga asosiy tildan foydalanish omili sifatida qaraladi. Eshitish va o'qish qobiliyatlari esa ikkinchi o'rinda turadi. Buning bir sababi eshitish qobiliyatini o'zlashtirishning biroz qiyinligi bo'lishi mumkin. Ammo eshitish, ya'ni tinglab tushunishni ham IT (Information technology) texnologiyasi ta'limga kirib kelganidan so'ng lingafon sinflarida, telefon yoki kompyuter yordamida turli til materiallari orqali darslarni tashkil etish o'quv jarayonini tashkil etishni ancha yengillashtirdi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik talabalarining qiziqishlari eshitish ko'nikmasiga qaratilish bilan birga dars davomida va mustaqil ishlash soatlarida ham tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratila boshladi. Ko'nikmalardan eshitishning afzalliklarini ingliz tili o'qituvchilari va talabalar tinglash mashqlari bilan tez-tez shug'ullanib turishi, til o'rgatish va o'rganish jarayonini jadallashtirishini aniqladik. Har qanday tilni o'rganishning zamirida eshitish yetakchi o'rinlarni egallay boshladi. Faqatgina bir ko'nikmaning o'zi til materialini to'liq o'zlashtirishga yetarli bo'lmasligini va biz talabalarimizdan kutilgan natijani olmasligimizni anglab yetdik. Shu bois til o'qituvchilari talabalarga ravon so'zlashni o'zinigina emas, taqdim etilgan o'quv materialini eshitib tushunishni o'rgatishga (ko'nikmalar integratsiyasi: Reading, Listening, Speaking, Writing asosida) katta e'tibor bera boshlashdi.

Ingliz tilini mukammal o'zlashtirish va undan foydalanish uchun mavjud bilimlarni shakllantirish va zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni til retseptiv qobiliyatlardan kelib chiqib ayniqsa eshitish va o'qish qobiliyatlarini o'rganish talab etiladi. Bu borada o'rganuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida til o'rganish dasturi tuzilgan. Ushbu dasturning tuzilishiga ko'ra unda hech qanday kirish yoki chiqish testlari bo'lmasligi kerak.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, chet tillar to'rtta ko'nikma o'qish, yozish, tinglash va gapirish orqali amalga oshiriladi, eshitish, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi ko'plab mashqlar va takomillashtirishga qaratilgan chora tadbirlar o'rganilgan lekin eshitish, tinglab tushunish darajalari yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan belgilandi.

Tadqiqotning maqsadi. Til o'rganuvchilarga eshitish, tinglab tushunishga qaratilgan chora tadbirlar bilan birga eshitish darajalari, eshitishdan oldingi, tinglashdan keyingi ko'nikma va malakalarni hosil qilish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Xorijlik tadqiqotchilar Bass Jossi, Mixalek Anne, Ratkliff Krista, Roland Bartlar eshitish, tinglab tushunish faoliyatini amalga oshirish jarayonini turlicha talqin qilganlar.

Rossiya olimlari: ko'plab olimlar P.B.Gurvich, M.S.Ilyin, B.A.Lapidus, A.A.Mirolyubov, I.E.Passov, I.D.Salitra, V.L.Skalkin, Z.A.Kochkina, G.V.Kolshanskiy, L.M.Shatilova va boshqalarning tadqiqotlarida eshitish, tinglab tushunish ko'nikmasi atroflicha o'rganilgan.

O'zbekistonda taniqli olimlardan J.Jalolov, R.A.Zaripova, S.S.Saydaliyev, O'.Hoshimov, I.Yoqubov eshitish, tinglab tushunish xususida o'z fikr qarashlari, taklif va xulosalarini berib o'tishgan. Ammo ularning tadqiqotlarida eshitish, tinglab tushunish darajalari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, tilni o'rganish jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasi yetakchi ko'nikmalardan hisoblanib, ilmiy izlanishlarimizda tinglashning uchta darajasi mohiyatini ochishga harakat qildik.

Tadqiqotning obyekti Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish, o'rganuvchilar mavjud ko'nikmalarini hisobga olgan holda kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni tanlandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Izlanishlarimiz davomida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan usullar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlar, suhbat, kuzatish).

Asosiy qism. Eshitish, tinglab tushunishni shakllantirish, ayniqsa, til o'rganish jarayonining muhim sharti hisoblanadi. Jahon olimlari tomonidan eshitish, tinglab tushunish borasida ko'plab izlanishlar olib borilgan. K.A.Krilovning ta'kidiga ko'ra, "tinglab tushunish bo'yicha muntazam mashg'ulotlar olib borilishi bugungi kunda juda

dolzarb bo'lib tinglamasdan nutq muloqotini rivojlantirish mumkin emas. Tinglash tushunchasi tovushli nutqni idrok etish va tushunish jarayonini o'z ichiga oladi. Tinglash (Listening), albatta, ingliz tilini o'rganishda muhim aspektlardan biridir¹.

Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozi nutq (gapirish) chog'ida quloq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi. Inson ma'naviy kamlotga odatda eshitish, ko'rish (kuzatish) va qolaversa, o'qish tufayli erishadi. Axborot to'planishida uchala faoliyat orasida tinglab tushunish eng muhimi hisoblanadi. Nutq faoliyatining turi va malaka hisoblanmish tinglab tushunish ta'lim maqsadi va vositasi ekanligi ma'lum. Tinglab tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi. Tinglovchining o'ziga bog'liqligi (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diqqati, xususiyatlari), tinglash shart — sharoiti, nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so'zlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi va nihoyat, qo'llangan materialning lingvistik jihatlar (tinglovchining til tajribasiga mos kelish—kelmasligi) hisobga olinadi.

Oxford lug'atida keltirilishicha **“eshitish** - bu tovush yoki harakatga e'tibor berish”. Eshitishda odam boshqalarning gaplarini eshitadi va uning ma'nosini tushunishga harakat qiladi. Eshitish harakati murakkab affektiv, kognitiv va xulq-atvor jarayonlarini o'z ichiga oladi². Affektiv (emotional) jarayonlarga boshqalarni tinglash motivatsiyasi kirs, kognitiv jarayonlar tarkibiga va unga aloqador xabarlariga qatnashish, tushunish, qabul qilish va izohlashni o'z ichiga olish bilan birga xulq-atvor jarayonlarini og'zaki va og'zaki bo'lmagan fikrlar bilan boshqalarga javob berishni o'z ichiga oladi.

Amerikalik olim Bass Jossining fikricha “Eshitish - bu muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Noto'g'ri eshitish noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin, bu esa nizo yoki janjalga sabab bo'lishi mumkin. Boshqa sabablar haddan tashqari uzilishlar, e'tiborsizlik, eshitmoqchi bo'lgan narsan-

gizni eshitish, javobni aqliy ravishda tuzish va yopiq fikr bo'lishi mumkin»³.

Xorijlik tadqiqotchi Mixalek Annening o'rganishlariga ko'ra eshitish yana xotira bilan ham bog'liq. Ularning tadqiqotlardan birida, so'zlovchi nutq so'zlayotgan paytida tinglovchilar tomonidan eshitilgan ba'zi fon shovqinlarini va ularni qayta eshitish orqali ba'zi ma'lumotlarni eslab qolishlariga yordam bergan. Masalan, biror kishi musiqa tinglayotganda o'qisa yoki boshqa biror narsa qilsa, u musiqani keyinroq yana eshitganda nima bo'lganini eslay oladi⁴ degan xulosani berganlar. Demak shovqinda tinglash har ikkala ovozni eslab qolish imkoniyatini beradi.

Ratkliff Kristaning “Madaniyatlararo xulq-atvor kodeksi” kitobida eshitish ritorik (javob talab qilinmaydigan) jihatdan madaniyatlararo kommunikativ nutqlarni ommalashtirish vositasi sifatida ham qo'llab quvvatlanadi. Ratkliff o'z argumentini odamlar madaniyatlararo nutqlarni rad etish istagini ko'rsatgan ikkita hodisaga asosladi. Ratkliff Krista tilshunos olimlarga tinglashni mazmunni anglash, jins va irq haqidagi diskursiv nutqlarni eshitish va eng muhimi, madaniyatlararo muloqotni osonlashtirish uchun yangi taktika sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi⁵.

O'zbek metodist olimlaridan Jamol Jalolovning “Chet til o'qitish metodikasi” darsligida eshitishga quyidagicha fikr bildiradi: “Eshitish analizatorini mashq qildirishning chet til o'rganishda ahamiyati katta, chunki u nutq oqimidagi fonemalar va ritm-melodiya hodisalarini farqlashda yetakchi rol o'ynaydi. Eshitish analizatori nutq harakat analizatori bilan yaqin aloqada bo'ladi. Artikulyatsiya bilan eshitish o'zaro bog'liq, ikkala analizator bir-birining ishini nazorat qilib turadi. Nutq faoliyati turlarini sodir etilishida analizatorlarning o'zaro harakati quyidagi tartibda kuzatiladi: gapirishda yetakchi — nutq harakat, qo'shimcha-eshitish,

³ Bass Jossi. “Eshitish, tinglab tushunish”. - 1999 yil. 57-bet.

⁴ Mixalek, Anne M.P. “Shovqinda tinglashda ishlaydigan xotira hajmi va audiovizual signallarning mustaqillig”. // Skandinaviya psixologiya jurnali. 59 (6): 2012–2018., 578–585 betlar.

⁵ Ratkliff, Krista «Ritorik tinglash: «Madaniyatlararo xulq-atvor kodeksi»». 51 (2): 1999 yil. 195–224- betlar. 5. Ratkliff, Krista «Ritorik tinglash: «Madaniyatlararo xulq-atvor kodeksi». 1999 yil. - 204-bet.

¹ K.A.Krilova. «Chet tili darslarida tinglashni o'rgatish texnikasi. Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish metodikasi Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish bosqichlari». // Jurnal Angliyskiy yozik. № 6 (42) iyun 2015 g. 274-280-str

² Oxford dictionaries.com. Oksford universiteti. “Tinglab tushunish”. 2018 yil. 372-bet.

o'qishda-ko'ruv, qo'shimcha-nutq harakat analizatori xizmat qiladi"¹.

Eshitishni amalga oshirish ovoz chiqaradigan karnayni eshitishdan boshlanadi. Semi-otik (belgilar, simvollar va ularning qanday ishlatishni o'rganuvchi) Roland Bart tinglash va eshitish o'rtasidagi farqni shunday tavsiflagan: «Eshitish - bu fiziologik hodisa, tinglash - psixologik harakatdir»². Odamlar doimo ongsiz ravishda eshitadilar. Tinglash tanlov asosida amalga oshiriladi. Bu kimdir eshitgan narsani tushunish va potentsial ravishda ma'no hosil qilish uchun amalga oshiradigan talqin qiluvchi harakatdir³. Bartning fikricha, tinglashni uch darajada tushunish mumkin: ogohlantirish, shifrlash va tovushning qanday hosil bo'lishini va uning tinglovchiga qanday ta'sir qilishini tushunish⁴.

Ma'lumki,, tilni o'rganish jarayonida eshitish, tinglab tushunish ko'nikmasi yetakchi ko'nikmalardan hisoblanib, ilmiy izlanishlarimizda tinglashning uchta darajasi mohiyatini ochishga harakat qildik. Tinglashning birinchi darajasi **"Ogohlantirish"** - atrof-muhit tovush signallarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, ba'zi joylarda ular bilan bog'liq ma'lum tovushlar mavjud, masalan, har qanday uydagi tovush. Har bir uyda u bilan bog'liq bo'lgan ma'lum tovushlar mavjud bo'lib, tovush shu uyda yashovchiga tanish va qulay holatni anglatadi. Shovqin, notanish tovush (masalan, eshik yoki pol taxtasining g'ichirlashi, oynaning sinishi) u yerda yashovchi odamlarni ehtimoliy xavf haqida ogohlantiradi.

Tinglashning ikkinchi darajasi **"Rasshifrovka"** (tushunarli bo'lmagan narsalarni anglab tushunib olish), ushbu daraja, tovushlarni anglashda eng nozik belgi yoki tovushni aniqlashni o'z ichiga oladi; masalan, onasining uyga qaytishini kutayotgan bolaning misolida ko'rsak bunda bola onasining harakat tovushlarini bildiruvchi tovush signallarini (masalan, jiringlash tugmalari, eshik tutqichining burilishi va hokazo) olishni kutadi.

¹ Jamol Jalolov. "Chet til o'qitish metodikasi". - T.: "O'qituvchi" Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi. Toshkent- 2012 yil. 27-bet.

² Roland Barthes. Shakllarning javobgarligi. - Nyu-York. 1985., 21-40-betlar.

³ Roland Barthes. Shakllar mas'uliyatida. - Nyu-York 1985., 312-bet.

⁴ Roland Barthes. Shakllarning mas'uliyati: musiqa, san'at va vakillik bo'yicha tanqidiy insholar. Oksford: Bazil Blekvell. 1987. - 167-171-betlar.

Uchinchi darajasi **"Tushunish"** so'zlovchining tovushini boshqalarga qanday ta'sir qilishini bilishni anglatadi. Bunday tinglash psixoanalizda, ongsiz ongni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bartning so'zlariga ko'ra, psixoanalitik bemorni tinglagan holda uning ongsizligi bilan xolisona aloqada bo'lish uchun hukmni to'xtatib turishi kerak. Xuddi shunday, oddiy tinglovchilar ham boshqalarni tinglaganlarida yakuniy xulosani chiqarishga shoshilmasliklari kerak.

Natijalar va amaliy misollar. Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, tinglashning uchala darajasi bir tekislikda, ba'zan esa bir vaqtning o'zida ishlaydi. Xususan, bir-biriga juda mos keladigan ikkinchi va uchinchi darajalar bir-biriga bog'langan bo'lishi mumkin, chunki ma'noni fahmlay olish, tushunish va xulosa chiqarish bir xil jarayonning bir qismidir. Shunday qilib, eshik tutqichining burilishini eshitgan har bir kishi deyarli avtomatik ravishda eshik oldida kimdir bor deb taxmin qilishi mumkin (ma'nosini keltirib chiqaradi).

Biz eshitish ko'nikmasidan foydalanib, oila a'zolarimiz, qo'shnilar do'stlar va hamkasblar bilan suhbatlashamiz, telefon qo'ng'iroqlariga javob beramiz, avtobus va idorada bironlarning gapiga quloq solamiz, ma'ruza tinglaymiz hamda teleradio ko'rsatuvlari va e'lonlarini eshitib, tomosha qilamiz. Odatda biz bunga unchalik ham e'tibor bermaymiz, ammo biz chuqurroq nazar solsak, eshitish jarayoni quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini bilib olamiz:

Birinchidan, mavzuga qarab eshitish turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi;

Ikkinchidan, ba'zan faqat eshitamiz, boshqa paytlarda esa eshitish so'zlashuv bilan birga kechadi;

Uchinchidan, eshitish turli maqsadlar: ma'lumot olish, do'stona so'zlashish, tinglab dam olish, o'yin o'ynash va shu kabilar bilan birga, gohida esa suhbatdosh bilan ro'baro' kelganda amalga oshadi;

To'rtinchidan, yuz va qo'l harakati kabilar muloqot ishorasi sifatida eshitilayotgan axborotni tushunishga ta'sir ko'rsatadi.

Xo'sh til o'rganishda bu jarayon qanday kechadi? Buni tasviriy san'at yo'nalishi talabalari misolida ko'rib chiqamiz. Demak, til o'rgatishda eshitish ko'nikmasini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etishi bois, xorijiy til amaliy mashg'ulotlarining kirish qismida nofilologik yo'nalish (ESP) talabalari masalan, tasviriy san'at

yo'nalishi talabalari bir muddat faqat eshitadilar. Ma'lumotning kirish qismida boshlang'ich bilim faqat eshitish yo'li bilan olinadi. Masalan, salomlashuv, guruh jurnalidan yo'qlama, kundalik yangiliklarni so'rash yoki o'qituvchi tomonidan beriladigan inglizcha ma'lumotlar, yoki haqiqiy ingliz tili muhitini yaratib beradigan qisqa yangiliklar xabari (BBC news) kabi faoliyatlarni eshitish orqali amalga oshiradilar. Bu xorijiy tildagi so'zlar ma'nosini to'g'ri tushunish va tinglash orqali hosil qilingan bilimlarni amalda qo'llashga qo'yilgan birinchi qadamdir.

Ehtimol, shuning uchun ham xorijiy tilni o'rgatishni eshitish ko'nikmasini rivojlantirishdan boshlash kerakdir. O'tmishda eshitish ko'nikmasini hosil qilish shakllaridan biri, matn o'qituvchi tomonidan bir marotaba ovoz chiqarib o'qib berilgan, o'quvchilardan esa matnni bir necha marta o'qish va undan so'ng o'qilgan matn mazmunini so'zlab berishdan iborat edi. Garchi bu metod o'qitish faoliyatlaridan biri hisoblansa ham, eshitish ko'nikmasini hosil qilishga olib kelmagan.

Eshitish ko'nikmasi matn tayyorlash va matn mavzusiga oid dastlabki bilim va hayotiy tajribalarni ishga solish bilan bog'liq bo'lib, uni o'rgatayotganda ularning hammasi e'tiborga olinishi kerak. Bu tushunchalarga e'tibor berish darajasi til o'rganuvchilarning maqsadi va til bo'yicha bilim darajasiga bog'liq. Bu ko'nikmani shakllantirish va rivojlantirishda dars jarayonida quyidagi amallarni bajarish o'z samarasini beradi, degan fikrdamiz:

1. Matnni eshitishdan oldingi faoliyatlar. Bu faoliyatlardan maqsad, matn mavzusiga oid dastlabki bilim va hayotiy tajribalarni jonlantirish. Shu maqsadda matnni texnik vosita yoki o'qituvchi orqali tinglashdan avval til o'rganuvchiga quyidagi faoliyatlar ketma-ketligini bajartiramiz:

a) tinglashga mo'ljallangan matn mavzusida o'qish uchun biror matn tayyorlaymiz va til o'rganuvchilardan uni o'qishlarini so'raymiz;

b) til o'rganuvchilardan matn sarlavhasiga qarab, uning mavzusi nima haqida ekanligini va ular nimani tinglashlari mumkinligini so'raymiz;

c) matn asosida biror rasm tayyorlaymiz va til o'rganuvchilardan uni sharhlash yoki unga izoh berishlarini so'raymiz;

d) tinglashga berilgan matn sarlavhasi haqida til o'rganuvchilarning shaxsiy fikrini so'raymiz.

Bu faoliyatlarning har biri bir necha jarayonni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, o'qituvchi notanish so'zlarni eshittirishi va tushuntirib berishi mumkin. Eshitish faoliyatlari zahirida grammatik qoidalar, yangi so'zlar, shuningdek, tinglashga mo'ljallangan matnning to'la tarkibi berilishi mumkin. Boshqacha aytganda, til o'rganuvchilar matn tinglash jarayonida ba'zi so'z va grammatik hodisalarni tushunishga ehtiyoj sezsa, yuqoridagi besh faoliyat davomida o'qituvchi ularga izoh berib borishi mumkin. Shu bilan til o'rganuvchilarning hamma ehtiyojlari ularning dastlabki bilimlarini faollashtirish bilan birga qondiriladi.

2. Eshitish jarayonida va undan keyin amalga oshiriladigan faoliyatlar. Bu yerda ikki xil faoliyat nazarda tutiladi:

a) har bir so'z ma'nosi va grammatik qoidalariga e'tibor bermay matnning umumiy mazmunini tushunishga qaratilgan faoliyatlar;

b) tinglangan matnga oid tushunchalarga bag'ishlangan faoliyatlar.

Eshitish ko'nikmasini rivojlantirishning ilk bosqichida, ya'ni, til o'rganuvchilar til bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmagan bir davrda matnning umumiy mazmuniga oid faoliyatlarni amalga oshiramiz va til o'rganuvchilardan matndagi asosiy ma'lumotlarni topishni talab qilamiz. Bu davrda til o'rganuvchilar tushungan narsalarini o'qituvchining yordamisiz bayon qila olmaydilar. Shuning uchun o'qituvchi quyidagi metodlar orqali ularga yordam ko'rsatadi:

a) til o'rganuvchilar matnni tinglagach, ulardan matn bo'yicha tayyorlangan bir qancha rasmlarni tartib bilan joylashtirish talab qilinadi;

b) til o'rganuvchilardan matnni tinglash barobarida chizma yoki xarita ustidan qalam yuritishlari so'raladi;

c) til o'rganuvchilardan matnni tinglash davomida rasmda ko'rsatilgan harakatlar va tasvirlarni ko'rsatishlari so'raladi.

Til o'rganuvchilarning til bo'yicha bilimi oshgan sari, ular tegishli faoliyatlarni amalga oshirishlari, eshitgan narsalari haqida fikr bildirishlari va ularni tahlil qilishlari mumkin.

Keyingi bosqichda quyidagi faoliyatlarni amalga oshiramiz:

a) Til o'rganuvchilardan to'g'ri, noto'g'ri yoki turli variantdagi savollarga javob berish talab qilinadi;

b) matndan bir abzas o'qiladi yoki eshittiriladi va til o'rganuvchidan endi matn davomida qanday hodisa yuz berishi yoki nimani eshitishi kutayotgani haqida taxminlarini gapirib berish so'raladi;

c) matn o'qiladi yoki eshittiriladi va til o'rganuvchilardan eshitganlarini daftariga qisqacha yozish va yozgan narsalari asosida matn mazmunini gapirib berish so'raladi;

d) til o'rganuvchilardan eshitgan narsasi haqida o'z fikrini bayon qilib berish va eshitgan narsalariga qo'shilish-qo'shilmasligini dalillar keltirib isbotlash so'raladi.

Til o'rganuvchilar texnik vosita orqali matn tinglashdan avval ularning dastlabki bilimlarini faollashtirish, shuningdek, ularga so'zlarni yodlatish va tayanch iboralarni tanishtirish maqsadida savollar berib, ularni matn mavzusi bilan tanishtiramiz.

Matnni tinglab tushunishda til o'rganuvchilar dastavval o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'ladilar. Shuning uchun matnni bir necha marta tinglagandan keyin, tayanch iboralarni topishni so'rashimiz mumkin. Undan so'ng "Nechta so'roq gap yoki birikma eshittingiz?" kabi savollarni qo'yib, matnni tushunishni osonlashtirishimiz mumkin. Bu faoliyatlar quyidagi tartibda tayyorlanadi:

1. Matnni tinglang va suhbatda necha kishi qatnashganini ayting.

2. Matnni yana bir bor tinglang va quyidagi so'zlar necha bor takrorlanganini ayting.

3. Matnni yana bir bor tinglang va quyidagi gaplar va iboralardan qaysi birini eshitganingizni belgilang.

4. Matnni yana bir bor tinglang va nechta so'roq gap yoki ibora eshitganingizni belgilang va h.k

Yana bir bosqichda eshitilgan xabarlar quyidagi: siyosiy, rasmiy, xorijiy, sport, san'at, madaniyat, diniy, iqtisodiy, sog'liqni saqlash, maorif, harbiy, sud va huquq kabi tushunchalardan qaysi biriga mos kelishini belgilashni so'raymiz.

Dars jarayonida o'qituvchi birinchi safar matnni boshidan oxirigacha tinglashni so'raydi. Ikkinchi safar, har bir matn eshittirilgach, uning nimaga oid ekanini avval bir kishidan va keyin boshqalardan so'raydi, shu tariqa hammaning javobini eshitadi hamda jamoaviy faoliyatni amalga oshiradi. O'qituvchi har bir tushunchani anglashda til o'rganuvchilarga yordam berish

yoki boshqa til o'rganuvchilarni yordamga chaqirishi mumkin¹.

Xulosa. Eshitish jarayoni bunday ketma-ketlikda tashkil qilingan darslar mashg'ulot davomida tinglovchilarni zeriktirib qo'ymaydi, darsga diqqatini berib o'tirishni talab qiladi, talaba yoki o'rganuvchini darsda faol ishtirok etishga undaydi, ayniqsa har bir topshiriqni talabaning o'zi bajaradi, shuning natijasida talaba o'rganganlariga nisbatan yangi g'oyalar, fikrlar yoki tanqidlar ishlab chiqara boshlaydi. Albatta, bunday mashg'ulotlarni tashkil qilishda tinglovchilarning chet tilidan bilim darajasini hisobga olgan holda material tanlash va rejalashtirishni unutmaslik lozim aks holda kutilgan natijaga erisha olmasligimiz mumkin. Agar har qanday chet til o'qituvchisi mashg'ulotlarni yangi texnologiyalarni galma-galdan qo'llab bir xillikdan chekinsagina har bir dars kutilgan samarani bera oladi deb umid qilamiz.

Xulosalarga tayangan holda, **amaliy takliflarni** berish joiz deb bildik.

1. Hofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining eshitish, tinglab tushunish ko'nikmalarini takomillashtirishning ta'lim yo'nalishiga mos tarzda ishlab chiqish maqsad muvofiq deb o'ylaymiz.

2. Tinglash qobiliyati yuzma-yuz muloqot orqali rivojlanadi. Ingliz tilida muloqot qilish orqali talabalar yangi tilni tanishtirish va o'zlarining tinglash qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega. Yuzma-yuz muloqotlarga asoslangan mashqlar ma'noni tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Tinglash ma'noga e'tibor qaratish va maqsadli tilda yangi va muhim kontentni o'rganishga harakat qilish orqali rivojlanadi. Ingliz tilida tinglashning ma'nosi va haqiqiy sabablariga e'tibor qaratish orqali talabalar o'zlarining lingvistik va nolingvistik tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

4. Eshitish, tinglab tushunish qobiliyati tushunish faoliyati ustida ishlash orqali rivojlanadi. Tinglashning aniq maqsadlariga e'tibor qaratish orqali o'quvchilar o'zlarining sa'y harakatlari va qobiliyatlarini baholashlari mumkin. Aniq belgilangan tushunish faoliyati bilan talabalar erishganlarini baholash va qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

¹ Farberman B.L. Peredovo'y pedagogicheskie texnologii, - T.: Fan, 127 bet.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Krilova K.A. «Chet tili darslarida tinglashni o'rgatish texnikasi. Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish metodikasi Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish bosqichlari». // Jurnal Angliyskiy yazik. № 6 (42) iyun 2015 g. 274-280-str
2. Oxford dictionaries.com. Oksford universiteti. "Tinglab tushunish". 2018 yil. 372-bet.
3. Bass Jossi. "Eshitish, tinglab tushunish". - 1999 yil. 57-bet.
4. Mixalek, Anne M. P.; "Shovqinda tinglashda ishlaydigan xotira hajmi va audiovizual signallarning mustaqillig". // Skandinaviya psixologiya jurnali. 59 (6): 2012–2018., 578–585 betlar.
5. Ratkliff, Krista «Ritorik tinglash: «Madaniyatlararo xulq-atvor kodeksi»».51 (2): 1999 yil. 195–224- betlar. 5. Ratkliff, Krista «Ritorik tinglash: «Madaniyatlararo xulq-atvor kodeksi»».1999 yil. 204-bet.
6. Jamol Jalolov. "Chet til o'qitish metodikasi". – T.: "O'qituvchi" Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi, Toshkent. 2012 yil. - 27-bet.
7. Roland Barthes,. Shakllarning javobgarligi. - Nyu-York. 1985., 21-40-betlar.
8. Roland Barthes, Shakllar mas'uliyatida. - Nyu-York 1985., 312-bet.
9. Roland Barthes, Shakllarning mas'uliyati: musiqa, san'at va vakillik bo'yicha tanqidiy insholar. Oksford: Bazil Blekvell. 1987., 167-171-betlar.
10. Farberman B.L. Peredovo'y pedagogicheskie texnologii. - T.: Fan, 127 bet.
11. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannim yazikam.- M.: Akademiya, 2004. – 332 s.
12. www.teachingenglish.org.uk
13. Rafiqovna, A. N. (2024). WAYS OF TEACHING EFFECTIVE LISTENING SKILLS. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(31), 73-76.
14. Ашурова, Н. Р. (2020). СПОРТ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ИНГЛИЗ ТИЛИГА ЎҚИТИШДА КЎНИКМАЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ. Современное образование (Узбекистан), (10 (95)), 46-53.